

---

## Mahalliy hokimliklarning aholini ro'yxatga olish sohasidagi vakolatlari

Mahalliy hokimliklarning aholini ro'yxatga olish sohasidagi vakolatlari

Barchamizga ma'lum O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkaziladi. Mazkur tadbirga tayyorgarlik ko'rish maqsadida mamlakatimizning barcha rududlarida targ'ibot va tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 16-martdagi O'RQ-611-sonli qonunining mazmun va mohiyatini keng jamoratchilikka tushuntirishda shahar va tuman hokimliklarning o'rni kattadir.

Shahar va tuman hokimliklarning aholini ro'yxatga olish sohasidagi vakolatlari nimalardan iborat? Mazkur qonunning 16-moddasiga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlari aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha hududiy komissiyalarni tuzadi, ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini hisobga olgan holda aholi punktlarida doimiy yashovchi aholi sonini ko'rsatgan holda ushbu punktlarning to'liq ro'yxati tuzilishini, ma'muriy-hududiy birliklarda ko'chalarning nomlari, uylar va xonadonlarning raqamlari ko'rsatilgan ko'rsatkichlar bo'lishini ta'minlashi, jalb etilgan ro'yxatga oluvchi xodimlar tarkibini tasdiqlashi, ro'yxatga oluvchi xodimlarni tanlab olish va o'qitishni tashkil etishi, aholini ro'yxatga olishni o'tkazish doirasidagi ishlarni bajarishga jalb etiladigan shaxslarning o'qishi va ishlashi uchun yaroqli mebel hamda aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtinchalik xonalar, shuningdek zarur transport vositalari berilishini ta'minlash, ro'yxatga olish varaqlarini va boshqa ro'yxatga olish hujjatlarini vaqtincha saqlash uchun qo'riqlanadigan xonalar ajratish yuzasidan choralar ko'rish, aholini ro'yxatga olishni o'tkazish xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlarning muvofiqlashtirilishini tashkil etishi kabi vakolatlariga egadir.

O'ktamjon Teshaboyev,

Rishton tumani statistika bo'limi boshlig'i.

2022-01-28 16:22:25